



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASI STATISTIKA BO'LIMI

2024- yil yanvar-fevral
oylarida



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ -5113- son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 65,3%**

**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
942,9
ming so'm**


**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi – 65,4%**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- mart holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral oylarida)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- mart holatiga ko'ra)

Soni, birlikda



2024

15 642

2023

18 111

2022

16 718

2021

13 823

2020

10 943

Soni, birlikda

2024

473

2023

590

2022

483

2021

804

2020

469

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-fevral oylarida)



2024


58,5%

2020

54,9%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissi

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati¹⁾	3 320,6	100,0	115,1
Qarshi shahar	955,5	28,8	122,1
Shahrisabz tumani	134,2	4,0	115,6
G'uzor tumani	136,5	4,1	111,7
Dehqonobod tumani	97,6	3,0	111,3
Qamashi tumani	196,5	5,9	110,5
Qarshi tumani	192,8	5,8	111,9
Koson tumani	240,7	7,3	115,3
Kitob tumani	225,0	6,8	112,9
Mirishkor tumani	155,7	4,7	110,9
Muborak tumani	184,1	5,5	113,1
Nishon tumani	130,9	3,9	112,0
Kasbi tumani	148,6	4,5	111,1
Ko'kdala tumani	49,0	1,5	113,0
Chiroqchi tumani	110,3	3,3	113,5
Shahrisabz tumani	206,3	6,2	112,6
Yakkabog' tumani	156,9	4,7	111,7


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar-fevral oylarida)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-fevral oylarida)



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar –fevral oylarida)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **65,3** foizni, shu jumladan, **2168,6** mlrd so'm hajmi kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tashkil etdi.



2023

2024



Hajmi, mlrd. so'mda



O'sish sur'ati

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Yakkabog' tumani	116,0	+13,0%
Shahrisabz tumani	149,4	+14,2%
Chiroqchi tumani	79,6	+15,8%
Ko'kdala tumani	39,9	+14,8%
Kasbi tumani	122,0	+13,7%
Nishon tumani	103,3	+11,6%
Muborak tumani	122,2	+8,9%
Mirishkor tumani	133,0	+11,6%
Kitob tumani	177,0	+13,3%
Koson tumani	197,7	+16,0%
Qarshi tumani	154,0	+11,2%
Qamashi tumani	161,8	+10,6%
Dehqonobod tumani	71,8	+10,3%
G'uzor tumani	95,7	+16,0%
Shahrisabz shahar	65,0	+11,0%
Qarshi shahar	380,1	+10,6%



Hajmi, mlrd. so'mda



O'sishi

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	3 320,6	100,0	115,1
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	168,1	5,1	113,2
Moliyaviy xizmatlar	657,7	19,8	127,4
Transport xizmatlari	716,4	21,6	110,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	675,5	20,3	111,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	115,0	3,5	109,6
Savdo xizmatlari	870,8	26,2	109,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	80,3	2,4	105,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	141,9	4,3	158,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	53,3	1,6	122,9
Ijara xizmatlari	73,3	2,2	109,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,6	3,9	106,5
Shaxsiy xizmatlar	128,3	3,8	109,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	48,6	1,5	120,8
Boshqa xizmatlar	135,3	4,1	113,7

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (2024- yil yanvar-fevral oylarida)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **83,5** foizni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

Qarshi shahar	132,1
Shahrisabz shahar	20,2
G'uzor tumani	30,4
Dehqonobod tumani	15,8
Qamashi tumani	63,4
Qarshi tumani	54,0
Koson tumani	110,7
Kitob tumani	79,4
Mirishkor tumani	54,1
Muborak tumani	43,8
Nishon tumani	36,4
Kasbi tumani	66,5
Ko'kdala tumani	15,5
Chiroqchi tumani	45,2
Shahrisabz tumani	45,9
Yakkabog' tumani	57,4

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral oylarida)



Savdo xizmatlari umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **15,2** foizni yoki **132,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil fevral** oyiga nisbatan Qashqadaryo viloyatida **117,5** % yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,8** foiz.

Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **129,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **105,6** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Yakkabog' tumani	31,7	+1,9%
Shahrisabz tumani	67,7	+14,2%
Chiroqchi tumani	15,2	+15,5%
Ko'kdala tumani	12,4	+15,3%
Kasbi tumani	27,7	+6,2%
Nishon tumani	35,9	+11,1%
Muborak tumani	51,7	+5,6%
Mirishkor tumani	52,4	+7,4%
Kitob tumani	53,4	+24,1%
Koson tumani	57,1	+16,5%
Qarshi tumani	65,0	+6,7%
Qamashi tumani	43,5	+2,4%
Dehqonobod tumani	24,0	+21,5%
G'uzor tumani	36,8	+21,4%
Shahrisabz shahar	12,0	+1,4%
Qarshi shahar	129,9	+5,6%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Qarshi shahar	339,2
Shahrisabz shahar	40,3
G'uzor tumani	17,5
Dehqonobod tumani	12,8
Qamashi tumnai	22,1
Qarshi tumani	16,7
Koson tumani	27,3
Kitob tumani	31,7
Mirishkor tumani	16,1
Muborak tumani	17,5
Nishon tumani	11,2
Kasbi tumani	15,1
Ko'kdala tumani	2,6
Chiroqchi tumani	17,0
Shahrisabz tumani	45,7
Yakkabog'tumani	24,7

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **51,6** foizni yoki **339,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-fevral** oylariga nisbatan Qarshi shahrida yuqori o'sish sur'ati **140,1** foizni tashkil etdi.

— Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning fevral** oyiga ularning ulushi **93,1** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)



 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sish sur'ati

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral oylarida)

Yakkabog' tumani	11,5	+11,6%
Shahrisabz tumani	9,0	+19,5%
Chiroqchi tumani	11,6	+14,9%
Ko'kdala tumani	6,2	+9,4%
Kasbi tumani	8,5	+13,4%
Nishon tumani	7,7	+15,8%
Muborak tumani	5,0	+14,2%
Mirishkor tumani	6,0	+8,3%
Kitob tumani	14,3	+17,6%
Koson tumani	12,1	+7,0%
Qarshi tuman	10,6	+8,7%
Qamashi tumani	11,6	+8,6%
Dehqonobod tumani	6,6	+2,2%
G'uzor tumani	9,0	+5,5%
Shahrisabz shahar	10,8	+21,9%
Qarshi shahar	27,7	+19,4%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd.so'mda

 O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2024-yil fevral-oyida ulushi 4,3 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-fevral oylarida)

53,3

2024-yilning fevral

oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismini egallaydi. Ularning ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral oylarida)

Yakkabog' tumani	1,5	+9,6%
Shahrisabz tumani	3,0	+10,7%
Chiroqchi tumani	0,5	+12,0%
Ko'kdala tumani	0,1	+12,0%
Kasbi tumani	0,8	+6,0%
Nishon tumani	0,3	+5,6%
Muborak tumani	3,1	+6,7%
Mirishkor tumani	1,1	+2,8%
Kitob tumani	6,0	+9,0%
Koson tumani	0,4	+7,2%
Qarshi tumani	0,6	+5,3%
Qamashi tumani	1,2	+13,8%
Dehqonobod tumani	0,2	+2,0%
G'uzor tumani	0,5	+13,6%
Shahrisabz shahar	2,3	+0,8%
Qarshi shahar	31,8	+29,1%

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **98,0** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral oylarida)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024- yilning fevral oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **90,5 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar-fevral oylarida)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-fevral oylarida)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral oyida, mlrd. so'mda)

Qarshi shahar	8,6
Shahrisabz shahar	1,7
G'uzor tumani	4,9
Dehqonobod tumani	6,1
Qamashi tumani	9,1
Qarshi tumani	4,8
Koson tumani	6,4
Kitob tumani	5,7
Mirishkor tumani	3,5
Muborak tumani	2,2
Nishon tumani	3,1
Kasbi tumani	4,5
Ko'kdala tumani	1,5
Chiroqchi tumani	1,8
Shahrisabz tumani	4,6
Yakkabog' tumani	4,8

2020- yilning fevraliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **31,0** mlrd. so'mga oshib, **73,3** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil fevral** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **40,8** foizni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-fevral oylarida)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 21,4 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-fevral oylarida)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-fevral oylarida)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral oylarida, mlrd. so'mda)



2020-yilning fevraliga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **28,0** mlrd. so'mga oshib, **48,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **83,3** foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel: (75)-221-44-32

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunolari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.